



GLOBALLASHUV JARAYORIDA YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNI DOLZARB MUAMMOLARI.

Kenjaev Shavkatjon Xusanovich

GulDU dotsenti +998906807907

shavkatjonkenjayev773@gmail.com

Annotatsiya Globallashuv jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishda birinchi bosqichda èsh avlodni oiladan boshlab tarbiyalash, so'ngra uni yanada yuksaltirish uchun o'rta ta'lim maktablarida tabiatga nisbatan munosabat, atrof-muhitni muhofaza qilish, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida qatnashish, o'simlik va hayvonot dunèsini asrash kabi maqsadlar sari tarbiyalash va ta'lim berish.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, ekologiya, ekologik va nafosat tarbiyasi, oilada ekologik tarbiya, tabiatga nisbatan munosabat, «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari, atrof-muhit muhofazasi, yetuk shaxs, ekologik bilim, ijtimoiy munosabatlar.

ECOLOGICAL CULTURE AND ITS FORMATION ABSTRACT

The first step in the development of ecological culture is to educate the younger generation from the family, and then to raise and educate them in secondary schools for such purposes as attitude to nature, participation in environmental protection, landscaping and protection of flora and fauna.

Keywords: Ecological culture, ecological upbringing, ecology, ecological and delicate upbringing, ecological upbringing in the family, attitude to nature, concepts of "human-nature-society", environmental protection, mature person, ecological knowledge, social relations.



KIRISH

Ekologik madaniyat- bu atrof muxit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar xamda xayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir. Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik tarbiya egasi deb atash mumkin. Oilada ekologik ta'lim va tarbiya berishdan maqsad – bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun haëti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq – odob yuzasidan xalqimizni asl èsh avlodlarining tabiatga xurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarini ko'paytirish, bog'u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jaraënida èshlar tabiat boyliklarini tejab-tergashga, tabiatni muxofaza kilishga o'rgatila boriladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat yoshlarini ekologik jihatdan savodxonligini madaniyatini oshirish, shunday ekologik madaniyatli, ta'lim – tarbiyali kishilarni say'i xarakati bilan tabiatni muxofaza qilish, ozoda – toza saqlash, hayvonot, qushlar, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali tabiatni narsalarini parvarishlashdir. Insonning kamolotga yetishishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaga, ota-onaning mas'uliyatiga bola tarbiyasining umumiy qonuniyatlarini yaxshi bilib, haëtda ularga qanchalik amal qilishiga ham bog'liq. Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari hisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o'z xalqining eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an'analari ruhida oliyjanob fazilatli, bilimdon, ekologik madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA



Globallashuv jarayonida bolalar qacda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siësiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jaraëdir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofida ashë va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiëtlari rivojlanishini kuzatamiz. Haëtning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiëjlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir. Har bir oilada dunëga kelgan bola-ësh avlod davlat o'rta qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda fidokorlik, mehnatsevarlik bilan xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol toptirilishi lozim.

Oilada ekologik madaniyatni shakllantirish uchun bolalarga iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, xayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiëbonlarni gulzorga aylantirish kabi xarakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlilikning eng oddiy ko'rinishlari hisoblangan tushunchalarni singdirib borish zarur. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyadagi ma'ruzasida quyidagilar belgilangan: «Biz iqtisodiy loyihalarni, birinchi galda, mintaqaning boy tabiiy zaxiralaridan, energetika va suv manbalaridan foydalanish, transport kommunikatsiyalari, gaz va neft tarmoqlarini barpo etish, ekologik muammolarni hal qilish kabi sohalarga tegishli aniq loyihalarni yaratish va amalga oshirish borasida kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirishimiz lozim».[1] Shuningdek,



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi «2013–2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida»gi 142-sonli qarori qabul qilingan. Istiqlol yillarida Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilaётgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Xususan, o'rta bo'g'in mutaxassislariga bo'lgan ehtiёjni qondirish, umumta'lim maktab bitiruvchilarini kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o'qitish bilan to'liq qamrab olish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash hamda o'quv jaraёni sifatini oshirish bilan bog'liq amalga oshirilaётgan tadbirlar ta'lim tizimida olib borilaётgan islohotlarning tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Darhaqiqat, ta'lim tizimidagi izchil islohotlar o'qitish sifati va mazmunini yuksaltiribgina qolmay, talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ekologik me'ёrlarni bilish ёsh avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi.[2] Har qaysi tarixiy davrlarda ham insonlarning tabiatga bo'lgan munosabatlari mavjud bo'lgan.

Sharq mutafakkirlari asarlarida halollik, poklik, atrof- muhitning tozaligi va tabiatni sevish xislatlariga ahamiyat berilgan. Vatandoshimiz Ibn Sino «Tabiatda g'ubor bo'lmaganda insonlar umri yanada uzayishi» haqidagi nazariyani ilgari surgan. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy XVII asrda ta'lim jaraёnining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma bolaning aqliy, jismoniy o'sishini tabiat qonuniyatiga muvofiq kelishi g'oyasini asoslagan.[5] XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni haqidagi falsafiy g'oyalar asosida ta'lim mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, ta'lim jaraёnining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishiga asoslanadi.[7] Ekologik va nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarni go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jaraёnda qo'llaniluvchi omillar sanaladi. Tabiat, mehnat, insoniy munosabatlar ekologik tarbiya vositasidir. Tabiat ekologik



tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni èsh avlod estetik tuyg‘ularining rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Saèhat, sayr, tabiatga bag‘ishlangan san’at asarlarini o‘rganish mazkur yo‘nalishdagi an’anaviy faoliyatlardir. Biroq tabiat ichida bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Tabiatdagi go‘zallikni ko‘ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab tajribaviy yer maydonchasida ishlash paytida o‘qituvchilar e’tiborni tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratish nafosat, tabiatni sevish ehtièjigina bo‘lmay, shuningdek, uni ehtiètlashdan ham iboratligini o‘quvchilarga tushuntirib borishlari lozim.[6] Hozirda qonun fuqarolarning ekologik madaniyatini tartibga soluvchi birdan-bir ijtimoiy vosita emas, ayni mahalda har bir fuqaroning ekologik tarbiyasiga èrdam beradigan rasmiy ma’naviy kuchdir, deb tushunamiz. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilishga, shuningdek, atrof-muhitga ehtiètkorona munosabatda bo‘lishga majburlar. Talabalarda eko- logik tarbiyani shakllantirish jaraènida faqat qonunlarni o‘qitishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Bunda ekologik madaniyatni tadqiqot va targ‘ibot qilish asosidagi mavzularga bag‘ishlangan tadbirlar ham ularda ekologik madaniyatning shakllanishiga yaqindan èrdam beradi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda èsh avlod tarbiyasi muay yan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqièti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilaètgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Tarbiyaning natijasi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jaraèn ikki tomonlama bo‘lib, uyushtirish va rahbarlik, shuningdek, talabalarining o‘zi tomonidan faollik ko‘rsatilishini taqozo etadi. Bu jaraènda pedagog yetakchi rol o‘ynaydi.



U ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadini tushunadi, unga erishish yoʻlida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan xabardor boʻladi, tarbiyaning shakl, metod, vositalarini toʻgʻri tanlay oladi va tarbiya jaraʼniga tadbiq etadi. Tarbiya jaraʼnining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama èndashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxs tarbiyaning natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning koʻpdan-koʻp xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki oʻzaro mustahkam bogʻlangan. Tarbiya jaraʼnida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi. Bola oʻsib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, gʻoyaviy-sièsiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, oʻquvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jaraʼnini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qoʻshib olib borilishini taʼminlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim gʻoyalariga amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jaraʼni talabalarning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda oʻziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va kengayishiga qaratilgan. Oliy taʼlimda talabalar ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur boʻlsa, ularning maʼnaviyati shunchalik boy boʻladi. Maʼlumki, ekologik madaniyatni shakllantirishga boʻlgan munosabat tarixiy xususiyatga ega. Qadimgi tarixiy yodgorliklardan sanalgan muqaddas zardushtiylik dini asosida yaratilgan «Avesto» asarida tabiatga boʻlgan munosabatlarga alohida eʼtibor qaratilgan. Unda insonlarni rostgoʻylikka, adolatparvarlikka undovchi; shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, yaylovlarni kengaytirish gʻoyalari; insonlarni madaniy turmush tarzini yaxshilashga undovchi gʻoyalarning mavjudligi ahamiyatlidir. Ushbu gʻoyalar hozirgi jamiyatimizdagi yetakchi gʻoyalarga mos keladi. Yildan yilga



shahar-qishloqlarimiz obod bo'lib, chiroy ochmoqda. Bu natijalar fuqarolarimizning ekologik madaniyati yuksalganligidan dalolat beradi.

O'z tabiatiga ko'ra, tarbiya jaraeni ko'p omilli xarakterga ega. Ya'ni, talabalarda ekologik madaniyatning qaror topishi oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlarning xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta'sirlar ostida ro'y beradi. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani ekologik madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish axloqiy qiëfa, ijobiy xulq-atvor me'èrlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uzluksiz ta'lim tizimida tabiatshunoslik, biologiya, geografiya kabi fanlarning o'qitilishi ekologik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi. Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda EKO-tizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiëtidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiëtkorona va mas'uliyat bilan muno sabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini qaror toptirish, ekologik madaniyatni shakllantirish zarurdir. «Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis olimi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» – turar joy, makon, «logos» – fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jaraendir.[8] O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida ahamiyat berilgan. Ijtimoiy- ekologik harakat g'oyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi 142- sonli qarori bilan tasdiqlangan «2013–2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha



harakatlar dasturi»da o'z ifodasini topgan. Mazkur dasturning maqsadi va vazifalari qatorida ekologik bilimlarni keng targ'ib qilishga, shuningdek, ekologik madaniyatni oshirishga erdam beradigan shart-sharoitlarni yaratish belgilangan.

Ushbu dasturni bajarishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tarkibida: atrof-tabiiy muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish, ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish maqsadlaridagi ta'lim sohasida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini va me'ëriy-uslubiy bazani rivojlantirish; barqaror rivojlanish maqsadlari uchun ta'lim bo'yicha va Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimi hamda ekologik xizmat ko'rsatuvchi me'ëriy-texnik hujjatlarni ishlab chiquvchi tashkilotlar xodimlarining kasbiy malakalarini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy markazlar tashkil etish ko'rsatilgan.[3] O'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr- muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jaraëndir. Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong), atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilaëtgán faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoën bo'ladi.

Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyatidir. Ekologik faoliyat ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilaëtgán jaraëndir. Oliy ta'lim muassasalarida, oila va jamiyatda ekologik mavzulardagi suhbat, davra suhbat, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko'kalamzorlashtirish) kabilar ekologik tarbiya samaradorligini oshiradi. Ta'lim



jaraènida ishtirok etaètgan sub'ektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiètlar, ommaviy axborot vositalari (jumladan, internet) materiallarining g'oyalari talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi. Ta'lim jaraènida èsh avlodning ekologik ongini shakllantirish uchun quyidagi asosiy masalalar hal etilishi zarur:

Bolalarning ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitni yaratish. Har bir shaxsda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish. Ekologik madaniyatni targ'ib etish markazi maktab bo'lishiga erishish. Ijtimoiy foydali mehnat èsh avlodni jamiyat haètini tashkil etish jaraènida faol ishtirok etishga tayèrlaydi. Talabalarda ekologik madaniyatni tarkib toptirishda oilaning o'rni muhimdir. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonligi, madaniy turmush darajasi, sog'lom muhitning barqarorligi, oila a'zolarining psixologik munosabati, o'zaro hamkorlikning mavjudligi shaxsning jamiyatga ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi. Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jaraènda bolalarda «insontabiat-jamiyat» tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofiqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlanadi. Oila muhitida tashkil etilaètgan hovli sathini supuribsidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiètkorona munosabatda bo'lish bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi.

O'zbekistonning èsh avlod ta'lim-tarbiyasi borasida to'plagan tajribasi har tomonlama andaza olishga arzigulik ekanini e'tirof etgan holda, mamlakatimizning o'ziga xos taraqqièt yo'li, xususan, ta'lim sohasida amalga oshirilaètgan islohotlar



naqadar to'g'riligiga yana bir ishonch hosil qilamiz. Ta'lim tizimi haqida so'z borar ekan, eng avvalo, ta'lim tushunchasiga to'xtalib o'tish joizdir. Ta'lim – bu davlat tomonidan qat'iy o'rnatilgan me'èrlar asosida tabiat va jamiyat unsurlarini o'rganish bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida, aniq maqsadga qaratilgan jaraèn hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, ekologik madaniyatini shakllantirish muammolarini ijobiy hal etish jamiyat ijtimoiy haètida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, pedagogik ta'lim-tarbiya, ijtimoiy turmush jaraèning barcha sohalarini, jabhalarini qamrab olmasa, u o'zining komil inson tarbiyasidagi katta imkoniyatlariga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeini egallab olmagan bo'lardi. Ekologik bilimga ega bo'lish, ekologik madaniyat, ma'rifat va madaniyat sohibi bo'lish, qonunlarni muqaddas hisoblab, ularga shak keltirmasdan faoliyat ko'rsatishga odatlantirish har bir shaxsning insoniy fazilatiga aylanmog'i kerak.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik madaniyatni shakllantirish davr talabidir. Zero, o'z Vatani farovonligi, shahrining obodligi uchun kurashish kelajakda xalqimizning iqtisodiy-madaniy turmushini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.[4] XULOSA Hozirgi kunda dunè bo'yicha havo haroratining keskin ko'tarilishi isib ketishi jaraènlari kuzatilmoqda. Bu esa davlatimizning asosiy ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Ekologik muammolarni bartaraf etish, uning oldini olish uchun aholining ekologik madaniyatini va ongini oshirish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatlarini yuksaltirish talab etiladi. Shuningdek ekologik madaniyatni oshirish maqsadida èshlarimizni maktabdagi ta'lim jaraènida ekologiya to'g'risida va ekologiyaga bog'liq bo'lgan fanlarni ko'proq uqtirish lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Qonunchilik palatasida so'zlagan nutqida bugungi kunda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ham sezilayotganini



ta'kidladi. "Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazib olinadigan yoqilg'idan nazoratsiz foydalanish global isish, tabiiy ofatlarning ko'payishi, atrof-muhit va aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda", — dedi prezident. Ushbu muammolarga javoban O'zbekiston uch yil avval "Yashil makon" umummilliy tashabbusini ilgari surdi, shuningdek, qo'shni davlatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishdi. Bundan tashqari, Toshkentda iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni o'rganishga ixtisoslashgan Markaziy Osiyo universiteti tashkil etildi. Xalqaro maydonda tashabbuslarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratilmoqda: O'zbekiston BMTning ekologik sohada ikkita asosiy rezolyutsiyasini taklif qildi. Shu bilan birga, "yashil" energiya allaqachon mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omiliga aylanmoqda. Prezidentimiz fuqarolarning fikr va takliflarini inobatga olib, 2025-yilni O'zbekistonda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilish orqali bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishni taklif etdi. Yig'ilganlar bu tashabbusni to'liq qo'llab-quvvatladilar. Hukumat joriy yil uchun ustuvor vazifa sifatida belgilangan eng muhim vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturini ishlab chiqishi kerak. Bu dasturda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, yashil maydonlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal etish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

REFERENCES

1. Bobir o'g'li, A. T. (2025, April). MILLIY INTELEKTUAL SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TAFAKKUR USLUBINING AHAMIYATI. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 9).



2. Abdullayev, T. B. O. G. L. (2023). INSON BORLIG ‘IDA ONG VA TAFAKKUR USLUBI MUTANOSIBLIGI. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 97-101.
3. Абдуллаев, Т. Б. У. (2018). Духовно-нравственный облик молодежи в условиях глобализации. *Academy*, 2(6 (33)), 67-69.
4. Abdullayev, T. B. O. G. L. (2022). BILISH FALSAFASI TARAQQIYOTIDA AL-BERUNIYNING O ‘RNI. *Academic research in educational sciences*, (3), 222-224.
5. Abdullaev, T. (2023). TIL VA TAFAKKUR DIALEKTIKASINING BILISH JARAYONIDAGI ROLI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(7), 138–143. <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N18>
6. Kenjayev SH.X.Uzluksiz ta’lim jarayonida yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi , Monografiya,T,-Toshkent. Metodist nashriyoti-2024.
7. Kenjayev Sh Yoshlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda badiiy adabiyotning o’rni. Monografiya. T., - 2022 Innovatsion – Ziyo.
8. Kendjaev, S. (2022). IMPROVING THE MORAL EDUCATION SYSTEM OF FUTURE TEACHERS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(03), 48-51.